

Farg'ona davlat universiteti Filologiya fanlari doktori (DSc) dotsent Yuldasheva Dilafuz
Maxamadaliyevna taqrizi ostida

Matkarimova Shaxnoza Maxamadjanovna

Mustaqil izlanuvchi

E-mail:sahnozamatkarimova37 @gmail.com

ORCID ID 0009-0002-5094-9399

<tel:99891-2064478>

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNI BILISH
JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING AHAMIYATI**

ANNOTATSIYA: Maqolada ta'limning samarali texnologiyasi sifatida vitagen ta'limdan foydalanishning ustuvorlik xususiyatlari to'g'risida so'z boradi. Vitagen ta'lim talabalarning hayotiy tajribasidan foydalanish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bilan birga ularda amaliy tajribaga asoslangan bilimlarni hosil qilishdir. Oliy ta'lim muassasalari talabalari ulg'aygan va hayotiy tajribaga ega mustaqil fikrga ega o'quvchilar bo'lganligi bois, texnologiyaning talabalar jamoasi bilan birgalikda qo'llash imkoniyatlari kengroq yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Kalit so'zlar: "vitagenlik", "vitagen tajribasi", A.S.Belkin, talabalar, texnologiya, kognitiv faoliyat, media resurslar.

KIRISH

Hozirda Respublikamizda "ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish" kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Ta'lim kommunikatsiyalari va texnologiyalari assotsiatsiyasi (AECT) ta'lim texnologiyasini "tegishli texnologik jarayonlar va resurslarni yaratish, ulardan foydalanish va boshqarish orqali o'rganishni osonlashtirish va samaradorlikni oshirishni o'rganish va axloqiy amaliyot" deb ta'riflab o'tilgan. U ta'lim texnologiyasini "o'rganish uchun jarayonlar va resurslarni loyihalash, ishlab chiqish, ulardan foydalanish, boshqarish va baholash nazariyasi va amaliyoti" sifatida ko'rsatib o'tildi. Shunday qilib, ta'lim texnologiyasi barcha haqiqiy va ishonchli amaliy ta'lim fanlariga, masalan, asbob-uskunalar, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan jarayonlar va protseduralarga tegishli bo'lib, ma'lum bir kontekstda nazariy, algoritmik yoki evristik jarayonlarga murojaat qilishi mumkin: albatta jismoniy texnologiyani nazarda tutadi.

Ta'lim texnologiyasi – bu texnologiyani ta'limga ijobiy tarzda integratsiyalash jarayoni bo'lib, u yanada xilma-xil ta'lim muhitini va bolalarning texnologiyadan foydalanishni, shuningdek, umumiy topshiriqlarini o'rganish usulini ta'minlaydi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot ishining maqsadi kategorik fanlararo tahlil va sintez asosida "vitagenlik" va "vitagen tajribasi" tushunchalari, ilmiy asoslash va vitagen tajribasi asosida talabalarni o'qitish nazariyasi va texnologiyasini ishlab chiqish, rivojlantirish media resurslaridan foydalangan holda ularni amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat hisoblanadi.

Bo'lajak pedagoglarning nutqiy kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishda vitagen ta'lim imkoniyatlari ijtimoiy-madaniy kompetentsiyasini rivojlantirishda Vitagen ta'lim texnologiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Vitagen ta'lim texnologiyasi haqida so'z yuritishdan oldin ushbu tushunchaning o'ziga ta'rif berib

o'tadigan bo'lsak "Vita" lotincha so'zdan olingan bo'lib "Hayot" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni vitagen – "hayotiy ahamiyatga ega", "muhim" degan ma'nolarni anglatadi.

Ushbu "Vitagen" texnologiyaning asoschisi A.S.Belkin hisoblanadi. Ushbu texnologiya XX asrning 90-yillarida shakllana boshlagan. Ushbu texnologiya o'quvchi-talabalarning har tomonlama rivojlanishiga imkon beruvchi texnologiya hisoblanadi. Vitagen texnologiya eng avvalo hayotiy tajribaga asoslangan holda ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarning rivojlanishini kafolatlovchi o'zaro natijaviy muloqotni tashkil etishga yordam beradi.

Vitagen texnologiyada boshqa texnologiyalardan farqli ravishda talabalarning hayotiy tajribasini ularning rivojlanishi va ijtimoiylashuvda asosiy vosita sifatida qaraladi. Talabalar bilan ishlash jarayonida hayotiy tajribalarga e'tibor qaratish orqali ular faoliyatini faollashtirish, aniq maqsadga yo'naltirish, hayotiy voqea-hodisalarga e'tiborli bo'lishni rivojlanishiga asos bo'ladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMALAR

Vitagen texnologiyaning birinchi tayyorgarlik bosqichi pedagoglardan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Bu texnologiyani o'tkazish jarayonida ishtirok etayotgan pedagog yuqori darajada pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Pedagog tomonidan talabalarning hayotiy tajribasiga tayangan holda o'rganilishi ko'zlangan kurs bo'limi yoki mavzu tanlab olinadi. Talabalar ushbu jarayonda o'z hayotiy tajribalarini namoyon qila olishlari uchun Vitagen tajribani rivojlantirish metodlari va usullari tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda esa ushbu jarayonning maqsad va vazifalari aniqlanib, talabalarga ma'lumotlar beriladi. Vitagen texnologiyaning uchunchi bosqichi boshlang'ich diagnostika bosqichi ushbu texnologiyaning eng asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda texnologiyani o'tkazayotgan inson eng avvalo talabalarning hayotiy tajribalarini ochib beradi va shundan keyin ushbu ma'lumotlarni tahlil qiladi, talabalar hayotiy tajribalarining sifati, anglanganligi, miqdori, mazmuni, chuqur o'zlashtirilishi, darajasi, ilmiyligi va ishonchliligi keyingi o'rganilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar harakatlarini belgilab beradi. Shuningdek ushbu bosqichda talabalarning hayotiy tajribalari bilan nazariy ma'lumotlar o'rtasida nomuvofiqliklar bo'lsa aniqlanadi, ushbu aniqlangan nomuvofiqlikni keltirib chiqaruvchi sabablar, dalillar to'planadi. Bu bosqichda texnologiyani tashkil qiluvchi insonning eng asosiy vazifasi talabalar hayotiy tajribalari va ilmiy bilimlar o'rtasidagi nomuvofiqlik qay darajada ekanligini aniqlash va ilmiy asoslarga tayangan holda talabalar Vitagen tajribalarining tarbiyaviy jihatlarini yaqqol ochib berishni nazarda tutadi.

Har bir bosqich o'zaro bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining davomi hisoblanadi. To'rtinchi bosqich mazmunli-texnologik bosqichda talabalarda hayotiy tajribalariga tayangan holda ijtimoiy faollik borasida nazariy ma'lumotlar, ilmiy g'oyalar, dalillarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon talabalarning hayotiy tajribalarini va axborotlarini hozirgi zamonaviy fanning talabalariga moslashtirishdan iborat. Bu bosqichda talabalarning hayotiy bilimlari ilmiy bilimlar bilan to'ldirilari, ba'zi hollarda hayotiy tajribalar inkor etilgan holda ilmiy jihatdan isbotlangan yangi bilimlar bilan to'ldiriladi.

Vitagenik tajribalarni korreksiyalash bosqichida esa talabalardagi ijtimoiy faollikga oid noto'g'ri go'yalarni, tajribalarni to'g'irlashni nazarda tutadi. Bu jarayonning muvofaqiyatli kechishi pedagogning mahoratligiga va talabalardagi hayotiy tajribalarni chuqur o'rganganligiga bog'liq bo'ladi.

Yakunlovchi diagnostik bosqichda esa talabalarning ijtimoiy faollikka oid bilim, ko'nikma va malakalari har doimgidek nazorat qilinadi. Lekin bu jarayonda Vitagenik tayyorgarlik metod va usullaridan foydalanilgan holda tashkil qilinadi va albatta talabalarning ijtimoiy faollikka oid hayotiy tajribalarini o'rganish eng asosiy o'rinni egallaydi.

Texnologiyaning rejalashtirilgan-bashoratlovchi bosqichida talabalarning ijtimoiy faolligiga vitagen tajribaning qanday ta'sir qilishi oldindan bashorat qilinadi.

Bo'lajak pedagoglarning nutqiy kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishda amaliy mag'ulotning muhokama qismida talabalar faol ishtirok etishadi va qo'lga kiritgan nazariy hamda amaliy bilimlarini

o'qituvchilar bilan birgalikda muhokama qilishadi. Bunda BBB-jadvali, klaster va "Debat" texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Vitagen ta'lim berish usuli ham ayrim talabalar, ham jamoaning intellektual potentsialini aniqlash, qo'lga kiritgan ma'lumotlarni amaliy ishlarda, muammoli vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Vitagen ta'lim texnologiyasini qo'llash talabalarning hayot tajribasi va vitagen tajribasiga tayanib, ma'lumotlarning mohiyati kengligi va amaliy faoliyatda zarurligi haqidagi tushunchalarni shakllantiradi.

Media resurslaridan foydalangan holda vitagen tajribasi asosida talabalarni o'qitish nazariyasi va texnologiyasini ishlab chiqish quyidagilarni ta'minlaydi:

- tizim-tarkibiy tahlil, hayotiy shaxs nazariyasi, faoliyat nazariyasi, fikrlash nazariyasi va semiotikadan foydalangan holda uslubiy tizimni, uning umumiy ilmiy, aniq ilmiy, intizomiy va fanlararo tarkibiy qismlarini yaratish;
- vitagen (hayotiy) tajribaga asoslangan talabalar ta'limi metodologiyasi va nazariyasining falsafiy asosi sifatida inson tomonidan vitagen (hayotiy) tajribasini olish jarayoniga mos keladigan inson mavjudligining ontologik antropologik kontseptsiyasidan foydalanish;
- fenomenologik tahlil asosida "vitagenlik" va "vitagen tajribasi" tushunchalarining ilmiy-nazariy salohiyatini tushunish, ularni ijtimoiy, biologik, psixofiziologik, pedagogik sifatida ko'rib chiqish, keyinchalik ularni fanlararo toifalar sifatida sintez qilish;
- "vitagen tajribasi" tushunchasining ilmiy va pedagogik salohiyatini aks ettiruvchi asosiy pozitsiyalar atrofida guruhlangan, aniq belgilar, maqsadlar, tamoyillar, usullar, yondashuvlar va ularni amalga oshirishning pedagogik shartlarini o'z ichiga olgan talabalarning vitagen ta'limining nazariy va natijaviy texnologik tizimlarini qurish: vitagen tajribasini tan olish, manba talabalar ta'limi; ta'lim sohasida talabalarning vitagenik tajribasini o'zgartirish va egallash imkoniyatlarini tan olish; jamiyatning vitagen tajribasining umumlashtirilgan turlarini, ma'lum bir guruh odamlarni talabalar ta'limining mazmuni, shakllari va usullarini loyihalash asoslaridan biri sifatida tan olish.

O'rganishda individual kognitiv faoliyat amalga oshiriladi, bu bola faoliyatining tabiati tufayli juda erta, ba'zan o'z-o'zidan, hatto maktabda tizimli ta'limdan oldin ham shakllanadi. Oliy ta'lim talabasi allaqachon o'z hayotiy tajribasining tashuvchisi, ya'ni ta'lim jarayonining subyekti bo'lib, u erda o'zini-o'zi rivojlantiradi va amalga oshiradi. Oliy ta'limning asosiy vazifasi talabaning tajribasini ahamiyatsiz deb hisoblash, rad etish emas, aksincha, ijtimoiy-tarixiy tajriba natijalarini boyitish orqali uni aniqlash, ishlatish, "yetishtirish"ni maksimal darajada oshirishdir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki tajribalarimiz shuni ko'rsatmoqdaki oliy ta'lim tizimida vitagen ta'lim imkoniyatlari keng miqyosda amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning hayotiy tajribasini aniqlash va mazkur tajriba doirasida uning bilimlarini takomillashtirish mumkin. Hayotiy tajriba va amaliy ko'nikmalar ta'limning yuqori sifatda tashkil etilishi imkoniyatini yanada oshiradi. Shu bois bugunning har bir pedagogi vitagen ta'lim texnologiyasini tushunishi va uni o'z faoliyatiga faol tadbiiq etib borishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Report by Tech.Ed.Gov (2017). NETP17.
https://uz.wikipedia.org/wiki/Ta%CA%BCLim_texnologiyasi
2. Norbo'taev Farxod Maxsiddin o'g'li "O'quvchi-yoshlarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim texnologiyalardan foydalanish". Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №6) ISSN 2181-1709 (P) <https://interscience.uz/index.php/home/article/download/3089/2753/8068>
3. Rustamova Nodira Rustamovna. Contents and technology of vitagen education of higher educational institution students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 2, 2020 Part II ISSN 2056-5852 p.57
4. Belkin A. S., Zhukova N. K. (1999) Vitagennoe obrazovanie: golograficheskij podhod. Ekaterinburg, – p. 136.
5. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRAKTIKAL CONFERENCE "AKTUAL ISSUEF OF PRIMARY EDUCATION: PROBLEMS,SOLUTIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS" Aprel 26, 2024.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI. Mazyayeva Muqaddaxon Esonovna 268-269 betlar.

6. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 7 JULY 2024. PRACTICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES OF PRESCHOOL PEDAGOGICAL TEACHERS BASED ON NEURAL NETWORK TECHNOLOGIES. Mazyayeva M.E. 135-138-betlar.

7. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES IN PRESCHOOL EDUCATION" MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNI BILISH JARAYONLARINI NEYROSET TEXNOLOGIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. Mazyayeva Muqaddaxon Esonovna, G'ofurov Azizbek Umarjonovich 234-235 betlar.